

ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA “TANBEH”LAR TALQINI

To‘ra Tosh Muhammad Zarif

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7514558>

Adabiyotshunoslar fikricha, “Mahbub ul-qulub” Navoiyning eng murakkab asarlaridan biri sanalib, u Alisher Navoiy nasrining gultojidir. Bu yerda har bir gap qalban aytilgan, o‘ylangan, aql tarozisiga solingan va shuning uchun o‘quvchidan jiddiy, mulohazali munosabatda bo‘lishni talab qiladi.

“Mahbub ul-qulub”ning uchinchi qismi “Mutafarriqa favoyid va amsol surati” (“Turli foydali o‘gitlar va masallar”) deb nomlanib, 127 tanbehdan iborat. Kichik kirish so‘zida Navoiy baxt-saodatning asosi – ma‘rifatda, eng katta baxtsizlik esa – ma‘rifatsizlik va jaholat ekanini ta‘kidlab, keyingi tanbehlarda hayotiy haqiqatlar, tajriba va xulosalarini ixcham tarzda, asosan aforizm shaklida bayon etgan.

“Mahbub ul-qulub”ning ushbu qismi inson tabiatidagi bosh illatlardan biri – takabburlik va manmanlik mohiyatini ochib beruvchi tanbeh bilan boshlanadi. Birinchi tanbehda berilgan xulosaga ko‘ra, har bir insonda yuz berishi mumkin bo‘ladigan holat – o‘ziga faqat yaxshi narsalarni ravo ko‘rib, boshqalarning g‘am-tashvishi va mashaqqatlariga nisbatan beparvo bo‘lish haqida so‘z yuritilib, bu narsa insonning doimiy dushmani – nafsning xohish va istaklaridan paydo bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan. Nafsning istaklariga bo‘ysunish o‘ziga bino qo‘yish, o‘z so‘ziga oshiq bo‘lish hamda zohirparastlikka olib kelishi mumkinligini keyingi tanbehda o‘z she‘rini Sa‘diy Sheroziy va Amir Xusrav she‘ridan ustun qo‘yadigan iste’dodsiz shoirlar, o‘zini Ja‘far va Azhar kabi mashhur xattotlar qatorida sanaydigan badxat va xat-savodsiz kotiblar, Moniy va Abdulhay kabi ulug‘ musavvirlarning ijodini ham pisand etmaydigan uquvsiz rassomlar, o‘zining donoligini ko‘z-ko‘z qilish maqsadida erta-yu kech madrasada munozara bilan mashg‘ul nodon va mutaassib mutakallimlar misolida ko‘rsatiladi.

Beshinchi raqam ostida kelgan tanbehda takabburlik va o‘ziga bino qo‘yish illatiga muhtalo bo‘lganlarni Navoiy uch toifaga ajratadi¹:

Birinchi guruhga yuqorida zikr etilganlar, ya‘ni boshqalar uni inkor etsa ham, o‘jarlik bilan o‘z xatosini tuzatishga kirishmagan toifa kiradi.

Ikkinchi toifaga esa, o‘zining xato fikrlari va noma‘qul ishlarini boshqalarga ma‘qullatishga kirishganlar hamda o‘zidan boshqa hech kimni nazar-pisand

¹ Habibullayev A. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining janr xususiyatlari (qiyosiy aspektida). Fil. f. nomzodlik fessertatsiyasi, –T., 1986.

qilmay, to'g'ri yo'lga kirishni maslahat berganlarni ham ranjitadiganlar mansub. Navoiy bunday kishilarni hayoti davomida ko'p uchratganini, ularga qancha yaxshilik qilsa, evaziga faqat jafo va muruvvatsizlik ko'rganini nadomat bilan qayd qilib, ko'pchilikda uchraydigan bu illatning o'zagini o'ziga bino qo'yishlik, shayton yo'lga boshlovchi nafs amriga mute bo'lishda, deb hisoblaydi.

Uchinchi toifa takabburlik haddan oshganlardan iborat bo'lib, Navoiy ularni yana uch guruhga ajratadi: 1) boshida podshoh bo'lish xayoli tushib, bu yo'lda nomunosib ishlar qilish va xudo tomonidan yuborilgan sultonga nisbatan isyon ko'targanlar; 2) fosid xayollarga berilib, o'zini payg'ambar deb da'vo qilgan gumrohlar va ilohiy g'azabga duchor bo'lganlar: "Va har xoini kozibki, bu da'vo qila kirishti, anbiyo arvoxidin anga jazo va rasvoliklar yetishti". 3) Alloh bergan ne'matlarga kufr keltirib, Fir'avn va Namrud kabi xudolik da'vosini qilganlar. Sakkizinchi tanbehda oldingi fikrlarning xulosasi sifatida Navoiy quyidagi hikmatni keltiradi:

"Takabbur Shayton ishi va biyiklik nodon ishi...
Butparastlik yaxshiroqkim, xudparastlik".

Insonning yaxshi-yomon qilmishlari haqida mulohaza yuritarkan, fosiqlik va zohidlik, yaxshilik va yomonlik, gunoh va savob – barchasi Ilohiy iroda va ixtiyor tufayli sodir bo'lishi, to'g'ri yo'lga kirganlar – shukronalikni bajo keltirishlari, xato qilgan holatlarda esa, tavba qilishlari lozimligi ta'kidlanadi²:

"Zuhd-u fisq elga taqdiri Yazdondindur,
Ammo ikkalasini birdek ko'rmak nodondindur.
Taqvoga shukr kerak va isyonga uzr".

Ayrim tanbehlari (11-18, 58, 105, 106, 108)ga sarlavha qo'yilgan, asosiy qismi sarlavhasiz keltirilgan. Sarlavha qo'yilgan tanbehlarda muruvvat, vafo, hayo, halimlik kabi go'zal insoniy xislatlarning mohiyati ochib beriladi. Ayrim tanbehlarda Navoiy forsiy tilda bitilgan didaktik adabiyotning eng go'zal namunalarini turkiy tilda jaranglatish barobarida ularni yangi ma'no-mohiyatlar bilan boyitadi, nasihatning achchiq, ammo foydali tilidan yanada samaraliroq foydalanadi. Masalan, Sa'diy Sheroziyning:

"Badxuy ba dasti dushman giriftor
ast, ki har jo ravad, az on raxoyi nayobad"

("Fe'li yomon kishi qayonga borsa, zulmidan qutulmoq imkonsiz bo'lgan bir dushmanga giriftordir") hikmati asosida musajja' nasrda yangi talqinni yaratgan:

² Hayitov Sh. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarining manbalari va g'oyaviy-badiiy tahlili. Fil. f. nomzodlik fissentatsiyasi, –T., 1997.

“Yamon qilg‘lik badxuy va bot achiglik turshruiy bir baloga giriftordur va bir ibtiloga muhtalokim, har yon borsa andin qutulmas va har sori borsa, andin xalos bo‘lmas”.

“Mahbub ul-qulub” turkiy adabiyotda yaratilgan didaktik asarlarning ilk namunalaridan biri bo‘lishi bilan birga, Navoiyning hayoti oxirida yaratilgani hamda uning dunyoqarashini yaxlit tarzda ifodalaydigan yirik axloqiy-falsafiy qomus sifatida bugungi kunga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. “Mahbub ul-qulub”dagi hikmatlarning aksariyati xalq maqollariga aylanib, keyingi avlodlarning tarbiyasi uchun muhim dasturulamal bo‘lib kelmoqda.

Iskandar Arastuning maslahatlaridan foydalangani kabi, Temuriylar ham Navoiyning pand-o‘gitlaridan foydalanadi; o‘zlari orasidan, Navoiyning fikricha, ideal tip talablariga javob bera oladigan hukmdorni tayinlaydilar, deb o‘yladi. “Mahbub ul-qulub” asari Alisher Navoiy yaratgan adabiy tilning xususiyatlarini aks ettiruvchi qimmatli manba sifatida ham XX asrda ilmiy jamoatchilik e‘tiborida bo‘ldi. Navoiyning nafaqat boy ijodi, balki sermazmun hayoti ham biz yoshlar uchun namunadir. Ayniqsa, so‘nggi asari nasriy pandnoma yo‘nalishida yozilgan “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”) adabiyotimiz tarixida o‘z o‘rniga ega asarlardandir. U Sharq adabiyoti tarixida Shayx Sa‘diyning “Guliston”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Nizomiy Aruzi Samarqandiyning “Chor maqola” kabi asarlari qatorida turadi.

“Mahbub ul-qulub” asari oltmish yillik umri davomida hayotda ko‘rgan-kechirganlarini teran tahlil qilib, muayyan xulosalar chiqargan donishmand adibning kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma‘naviy merosidir. Bu asar har bir odam umri davomida duch kelishi muqarrar bo‘lgan hayotiy muammolarga eng to‘g‘ri yechimlarni ta‘sirli usulda berishi bilan ahamiyatlidir. Asar turli foydali maslahatlar, maqollar va pand-nasihatlarni qamrab olgan bo‘lib, tanbeh shaklida yozilgan.

“Mahbub ul-qulub”dagi har bir tanbeh, bayt yoki qit‘a hayotiy hikmat darajasiga ko‘tarilganki, bu tanbehtar zamiriga xalqning ko‘p asrlik hayot tajribasi davomida to‘plagan maqol va matallarining mazmuni singdirilgan. 120 dan ortiq tanbehda muallif ochko‘zlik, baxillik, baxdulqlik, takabburlik, xudbinlik singari inson xarakterida kuzatiladigan bir qancha salbiy fe‘l-atvordagi xislatlarni keskin tanqid qiladi. Odamiylik fazilatlarini, komillikka yetaklovchi chin insoniy sifatlar xususida ibratli fikrlar bildiradi. O‘z fikrlarini turli mazmundagi hikoyat, hikmatli baytlar bilan asoslashga harakat qiladi. Jumladan, asarda qozilar musulmonlarning yaxshi va yomon ishlari yuzasidan hukm chiqaruvchilar deb ta‘riflanadi. Ular nima desalar shu bo‘lgani uchun Navoiy bu toifa ahlini cholg‘u asbobiga o‘xshatadi, chunki cholg‘udan qanday kuy chiqishini

faqatgina cholg'u hal qiladi. Bu o'rinda cholg'u soz bo'lsa undan nafis kuy taraladi, agar soz bo'lmasa qancha berilib chalgan bilan undan bema'ni tovushdan boshqa sado chiqmaydi³.

Asarda, shuningdek, yoshlarga oid bo'lgan yaxshi va yomon xislatlar haqida so'z yuritiladi va bularga quyidagilarni misol qilish mumkin: Kimki xalqqa ko'rsatib ehson bersa, u pastkash, saxiy emas. Yaxshiliklarni topmoq – yedirmoqdir; ayblarni yashirmoq – kiydirmoqdir. Alisher Navoiy insonlardagi yomon illatlarning o'rnini qanday qilib yaxshi xislatlarga aylantirishni aniq ko'rsatib berganlar va bu yozganlariga ham o'zlari doimo amal qilgan. Adib insonlarda uchraydigan bir qancha qusurlarni qattiq tanqid ostiga oladi: Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz. Nodoning vahshiyarlarcha baqirmog'i – eshakning bemahal hangramog'i. Ko'p, bemaza so'zlaydigan ezma odam kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o'xshaydi. O'zi xunuk, gapi bema'ni, ovozi yoqimsiz odam qurbaqaga o'xshaydi. Har kimningki so'zi – yolg'on, yolg'onligi bilingach, uyatga qolg'on; yolg'onni chindek gapiruvchi so'z ustamoni – kumushga oltin qoplab sotuvchi zargar. Yolg'on gapiruvchi g'aflatdadir; so'zning bir-biridan farqi ko'pdir, ammo yolg'onroq turi yo'qdir. Komil inson tarbiyasida bunday yomon illatlarning bo'lishi mutlaqo nojoizdir.

Xulosa shuki, “Mahbub ul-qulub” asaridagi “Tanbeh”larni matniy tadqiq etish, ularni boshqa adiblar asarlari bilan o'zaro qiyoslab o'rganish, undagi har bir “Tanbeh” mazmunini izohlagan holda teranroq anglagan holda tahlil qilish manbashunoslik va matnshunoslik faniga salmoqli hissa bo'lib qo'shiladi. Bu esa, o'z navbatida, “Mahbub ul-qulub” asarining qiymatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdug'afurov A. Navoiy ijodida satira. – Toshkent: Fan, 1972.
2. Abdurahmonov G', Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: O'qituvchi, 1981.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to'plami. 10 jildlik, 9-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
4. Habibullayev A. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining janr xususiyatlari (qiyosiy aspektda). Fil. f. nomzodlik fissentatsiyasi. –Toshkent, 1986.
5. Hayitov Sh. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining manbalari va g'oyaviy-badiiy tahlili. Fil. f. nomzodlik fissentatsiyasi. –Toshkent, 1997.

³ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to'plami. 10 jildlik, 9-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.

6. Valixo'jaev B. Mumtoz siymolar. 1-kitob. – Toshkent: A.Qodiriy, 2002.
7. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyoti tarixi (o'quv qo'llanma). I qism. – Samarqand: SamDU nashri, 2002.